

## XALQARO NIZOLARNI HAL ETISHDA BRYUSSEL I REGLEMENTINING YURISDIKSIYA QOIDALARI

**Madaminova Madinabonu**

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14278023>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola 1215/2012-sonli Bryussel I Reglementining xalqaro xususiy huquq sohasida, xususan, yurisdiksiya qoidalari bo'yicha ahamiyatini tahlil qiladi. Shuningdek ushbu reglament Yevropa Ittifoqi doirasida fuqarolik va tijorat ishlari bo'yicha xalqaro nizolarni hal qilishda sudlarning vakolatini belgilaydi. Maqolada reglamentning asosiy qoidalari, jumladan, umumiy yurisdiksiya qoidalari, maxsus va eksklyuziv yurisdiksiya, shuningdek, tomonlar kelishuvi asosida yurisdiksiya tanlash imkoniyati tahlil qilinadi. Bryussel I Reglamentining o'ziga xos jihatlari, masalan, xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etish tartibi hamda ular xalqaro nizolarni hal qilishda qanday qo'llanilishi tartibi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro nizolar, Yurisdiksiya, Sud qarorlarini tan olish, Sud qarorlarini ijro etish, Yevropa Ittifoqi huquqi, Sud vakolati, Lis pendens.

## ЮРИСДИКЦИОННЫЕ ПРАВИЛА БРЮССЕЛЬСКОГО РЕГЛАМЕНТА ПО РАЗРЕШЕНИЮ МЕЖДУНАРОДНЫХ СПОРОВ

**Аннотация.** Данная статья анализирует значение Регламента № 1215/2012 "Брюссель I" в области международного частного права, в частности, правила юрисдикции. Кроме того, рассматривается, как этот регламент определяет полномочия судов в рамках Европейского Союза при разрешении международных споров в гражданских и коммерческих делах. В статье исследуются основные положения регламента, включая общие правила юрисдикции, специальные и исключительные правила юрисдикции, а также возможность выбора юрисдикции на основе соглашения сторон. Особое внимание уделяется уникальным аспектам Регламента "Брюссель I", таким как процедура признания и исполнения иностранных судебных решений и их применение при разрешении международных споров.

**Ключевые слова:** Международные споры, Юрисдикция, Признание судебных решений, Исполнение судебных решений, Право Европейского Союза, Юрисдикция, Lis pendens.

## JURISDICTION RULES OF THE BRUSSELS I REGULATION FOR THE RESOLUTION OF INTERNATIONAL DISPUTES

**Abstract.** This article analyzes the significance of Regulation No. 1215/2012 "Brussels I" in the field of private international law, particularly its jurisdictional rules. Additionally, it examines how this regulation defines the jurisdiction of courts within the European Union when resolving international disputes in civil and commercial matters. The article explores the key provisions of the regulation, including general jurisdiction rules, special and exclusive jurisdiction, as well as the possibility of choosing jurisdiction based on parties' agreements. Special attention is given to unique aspects of the "Brussels I" Regulation, such as the procedure for recognizing and enforcing foreign court decisions and their application in resolving international disputes. The article also discusses the regulation's effectiveness in international commercial and legal relations, its contribution to the dispute resolution process, and the challenges encountered in applying its provisions.

**Key words:** International disputes, Jurisdiction, Recognition of court decisions, Execution of court decisions, European Union law, Jurisdiction, Lis pendens.

**Kirish.** Xususiy turdag'i munosabatlar sonining ortib borishi, o'z navbatida, xalqaro xususiy tabiatga ega bo'lgan nizolarni ko'payishini, sudlar oldiga chet elementi bilan murakkablashgan xususiy nizolarni o'z vaqtida va qonuniy va adolatli hal qilish masalasi qo'yilishini keltirib chiqaradi. Transchegaraviy tijorat nizolarini hal qilishda vakolatli forumni tanlash ya'ni yursidiksiya qoidalari asosida vakolatli sudni aniqlash zarurati tug'iladi. Yevropa Ittifoqida tijorat va fuqarolik nizolarining adolatli hamda o'z vaqtida hal qilinishini ta'minlash uchun umumiyluq huquqiy me'yorlar zarurdir. Shu sababdan, Bryussel I reglamenti xalqaro yurisdiksiya qoidalari belgilashda muhim o'rinni tutadi.

**Metodlar.** Ushbu maqola qiyosiy-huquqiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, normativ-huquqiy tahlil, doktrinal tahlil asosida yoritilgan bo'lib, Bryussel I Reglamentining asosiy qoidalari, xususan, umumiyluq yurisdiksiya, maxsus va eksklyuziv yurisdiksiya qoidalari batafsil o'rganiladi. Shuningdek, tomonlar kelishuvi asosida yurisdiksiya tanlash imkoniyatlari va xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etish tartiblari ko'rib chiqiladi.

**Tadqiqot natijalari:** Bryussel I reglamenti 2001-yil ishlab chiqilgan va 2002-yil 1-martda kuchga kirgan bo'lib, ushbu reglament Yevropa Ittifoqi yurisdiksiyasini tartibga soluvchi, a'zo davlatlar o'rtasida fuqarolik va tijorat nizolarini hal etish bo'yicha sudlar qarorlarini tan olish shuningdek ularni ijro etishni tartibini belgilab beruvchi muhim huquqiy asos bo'lgan. 2001 yilgacha Yevropada 1968- yilda qabu qilingan Bryussel konvensiyasi amal qilib kelgan ammo

1968-yilgi Bryussel Konvensiyasining o‘rniga Bryussel I Reglamentining qabul qilinishi bir necha sabablarga ko‘ra amalga oshirildi. Ushbu o‘zgarishlar asosan quyidagi omillar bilan bog‘liq:

**1. Tizimni zamonaviylishirishga bo‘lgan ehtiyoj:**

Bryussel Konvensiyasi o‘z davrida muvaffaqiyatli bo‘lgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan yuridik va iqtisodiy sharoitlar o‘zgarib bordi. Bryussel I Reglamenti konvensianing tartib-qoidalarini yangilab, zamon talablariga moslashtirish maqsadida ishlab chiqildi. Bu o‘zgarishlar sud yurisdiktsiyasi va qarorlarning tan olinishi va ijro etilishi jarayonlarini yanada soddalashtirishga qaratilgan edi.

**2. Yurisdiksiya qoidalarini yengillashtirish zarurati:**

Bryussel I Reglamenti, konvensiyaga nisbatan, yurisdiksiya qoidalarini yanada soddalashtirib, barcha Yevropa Ittifoqi a’zolari uchun yagona qoidalar tizimini taqdim etdi. Bu, sudlarda yurisdiktsiyani belgilashda adolatli va izchil yondashuvni ta’minalashga yordam berdi.

Masalan Bryussel I Reglamenti 25-moddasiga asosan, shartnomalar bo‘yicha yurisdiktsiyani belgilashda, tomonlar o‘rtasidagi kelishuvni yanada kengaytirdi. Endi tomonlar o‘zaro kelishib, nizo qaysi sudda ko‘rilishini tanlash imkoniga ega bo‘ladi va bu ikkala tarafga ham majburiy ekanligi belgilab qo‘yildi

**3. Sud qarorlarini tan olish va ijro etish jarayonini soddalashtirish:**

Bryussel I Reglamenti sud qarorlarining tan olinishi va ijro etish jarayonlarini yanada tezlashtirishni maqsad qilib qo‘ydi. Bu reglament, sud qarorlarini boshqa davlatlarda tan olish va ijro etishning shartlarini soddalashtirgan va buni avtomatik tartibda amalga oshirish imkonini bergen.

Qisqa qilib aytganda Bryussel I Reglamentini qabul qilinishi Yevropa Ittifoqining ichki bozorini rivojlantirishga yordam berdi. Sud yurisdiksiyasi, tan olish va ijro etish qoidalarining bir xil bo‘lishi, savdo va iqtisodiy aloqalar o‘rtasida yanada mustahkam bog‘lanishni ta’minaladi. Bu esa investitsiyalarni, savdoni va iqtisodiy hamkorlikni oshirishga olib keldi. 2012-yilda esa Bryussel I reglamentiga o‘zgartirishlar kiritildi va uning o‘rniga 2015 yil 10 yanvarda kuchga kirgan Bryussel I bis Reglamenti qabul qilindi. Ushbu islohot transchegaraviy sud ishlarining samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan va dastlabki nizomning ayrim kamchiliklarini bartaraf etdi.

Reglamentning 1- moddasida nizomning qo’llanilish sohasi yoritilgan bo‘lib unga ko‘ra Bryussel I reglamenti sud yoki tribunalning xususiyatidan qat‘i nazar, fuqarolik va tijorat ishlariga nisbatan qo’llaniladi. Biroq, u barcha turdagи huquqiy nizolarni qamrab olmaydi. Xususan, tartibga solish boshqa ixtisoslashtirilgan qoidalar bilan ziddiyatlarni oldini olish uchun muayyan sohalarni o‘z doirasidan chiqarib tashlaydi.

Bu holat **Acta lure Imperii** deyiladi ya'ni xalqaro huquqdagi tamoyil bo'lib, u davlat yoki uning vakillari tomonidan o'z suveren hokimiyatini amalga oshirishdagi xatti-harakatlarga ishora qiladi. Bu aktlar suveren immunitet doktrinasiga muvofiq xorijiy sudlarning yurisdiksiyasiidan immunitetga ega hisoblanadi.

Ushbu istisnolar 1-moddaning 2-qismida belgilangan.

**Asosiy istisnolarga quyidagilar kiradi:**

- **Daromad, bojxona yoki ma'muriy masalalar:** soliqqa tortish, bojxona to'lovlari yoki ma'muriy qoidalar bilan bog'liq nizolar Bryussel I Nizomi doirasidan tashqarida.

- **bankrotlik va to'lovga layoqatsizligi to'g'risidagi ish yuritish:** kompaniyalar yoki jismoniy shaxslarning to'lovga layoqatsizligi bilan bog'liq masalalar, shu jumladan tugatish va shunga o'xhash jarayonlar bundan mustasno. Bu masalalar Evropa Ittifoqining to'lovga layoqatsizligi to'g'risidagi nizom kabi alohida Evropa Ittifoqi qoidalari bilan hal qilinadi.

- **Ijtimoiy ta'minot masalalari:** pensiya yoki ishsizlik nafaqalari kabi ijtimoiy ta'minot qonunlari bilan bog'liq nizolar ham bundan mustasno.

- **Arbitraj:** Nizom arbitrajni aniq istisno qiladi, ya'ni hakamlik kelishuvlari va qarorlari bilan bog'liq sud qarorlarining yurisdiksiyasi, tan olinishi va ijro etilishi Nyu-York konvensiyasi kabi boshqa qoidalalar bilan tartibga solinadi.

Reglamentda, shuningdek, uning qo'llanilishi Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan barcha davlatlarga taalluqlidir, faqatgina Daniya bundan mustasno, lekin Yevropa Ittifoqi bilan sud qarorlarining yurisdiksiyasi va ijrosi bo'yicha alohida kelishuvga ega.

Reglamentni asosiy qoidasiga ko'ra a'zo davlatda istiqomat qiluvchi fuqarolar millatidan qat'iy nazar lex domicilii qoidasiga ko'ra ushbu a'zo davlat sudlarida da'vo qila oladilar. Bu shuni anglatadiki, sudlanuvchining yurisdiksiyasi sudlanuvchining yashash joyi bilan belgilanadi. A'zo davlatda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmasan shaxslar ham ushbu a'zo davlat fuqarolari bilan bir xil yurisdiksiya qoidalariiga bo'ysunadi.

**Maxsus yurisdiksiya:** Reglamentning 7-moddasi bo'yicha maxsus yurisdiksiya:

**1. Shartnomalari majburiyatlar bo'yicha maxsus yurisdiksiya**

Umumiy qoidaga ko'ra shartnomalari munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha yurisdiksiya da'vo qilayotgan tomon joylashgan a'zo davlat sudlariga tegishli hisoblanadi. Maxsus holatlarda esa agar nizo muayyan shartnomalari bilan bog'liq bo'lsa, da'vogar shartnomalari majburiyatlar bo'yicha shartnomalari bilan tegishli hisoblanadi. Misol uchun, agar Germaniyada joylashgan kompaniya Fransiyada joylashgan kompaniya bilan Ispaniyada tovarlarni yetkazib berish bo'yicha shartnomalari tuzsa, da'vogar ishni yetkazib berish amalga oshirilishi kerak bo'lgan Ispaniyada olib borishi mumkin.

## **2. Sharhnomadan tashqari majburiyatlar bo'yicha maxsus yurisdiksiya**

Bu qism asosan sharhnomadan tashqari majburiyatlardan (masalan, huquqbuzarlik yoki delikt) kelib chiqadigan nizolar uchun yurisdiksiyani belgilaydi. Ya'ni zarar yetkazish bilan bog'liq hodisa sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nizolar bo'yicha a'zo davlat sudlari yurisdiksiyaga ega. Misol uchun agar Italiyada faoliyat yurituvchi biznes Belgiyadagi mulkka zarar yetkazsa, zarar ko'rgan tomon Belgiya sudlariga ishni qo'zg'atishi mumkin.

## **3. Moddiy huquqlarga oid masalalarda yurisdiksiya**

Mulkiy huquqlar (mulkga egalik qilish kabi real huquqlar) bilan bog'liq nizolar mol-mulk joylashgan a'zo davlat sudlarida ko'rib chiqilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Ya'ni Fransiyadagi mulkka egalik qilish to'g'risidagi nizo, manfaatdor tomonlarning yashash joyidan qat'i nazar, Fransiya sudlarida ko'rib chiqilishi kerak.

**Exclusive yurisdiksiya:** Bryussel I Nizomining 24-moddasida a'zo davlat sudlari mutlaq yurisdiksiyaga ega bo'lgan aniq ishlarni belgilaydi, ya'ni boshqa hech qanday sud ishni ko'ra olmaydi. Bunga quyidagilar kiradi:

**Ko'chmas mulk:** ushbu a'zo davlatda joylashgan ko'chmas mulkka (yer yoki binolar) nisbatan mulkiy huquqlar (real huquqlar) bilan bog'liq nizolar. Misol uchun, agar Fransiyada joylashgan mulkka egalik qilish bo'yicha nizo kelib chiqsa, faqat fransuz sudlari yurisdiktsiyaga ega.

**Kompaniyani tashkil etishning amal qilish muddati:** kompaniya ro'yxatdan o'tgan a'zo davlat yurisdiksiyasiga tegishli bo'lgan kompaniyalar yoki boshqa yuridik shaxslarning inkorporatsiyasining haqiqiyligi va ularning ustavining amal qilishi bilan bog'liq masalalar.

**Fuqarolik holati:** Shaxslarning fuqarolik holatiga oid da'volar (masalan, nikoh, ajralish yoki muomala layoqati) shaxsning doimiy yashash joyi bo'lgan a'zo davlat sudlarida ko'rib chiqilishi kerak.

**Ommaviy registrlar:** Mulk registrlari kabi davlat registrlarida huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq nizolar faqat reestr yuritiladigan a'zo davlat sudlarining yurisdiksiyasi ostidadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, Reglament Yevropa Ittifoqida vakolatlari forumni ya'ni vakolatlari sudlarni belgilab berish shuningdek ularning qarorlarini tan olish va ijroga qaratishni tartibga soladi.

**Xulosa:** Bryussel I reglamenti va Bryussel I bis Reglementi Yevropa Ittifoqi doirasida transchegaraviy nizolar uchun huquqiy landshaftni shakllantirishda asosiy norma hisoblanadi.

Aniq yurisdiksiya qoidalarini o'rnatish va sud qarorlarini tan olish va ijro etishni tartibga solish orqali ushbu qoidalar Yevropa Ittifoqida sud xarajatlarini qisqartirdi va a'zo davlatlar bo'ylab odil sudlov tizimini yaxshiladi.

Biroq, ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amalda tatbiq etilishi turli muammolarni, jumladan, milliy sud amaliyotidagi nomuvofiqliklarni va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qoidalarining samaradorligi bilan bog'liq kamchiliklar aniqlandi. Yevropa Ittifoqi rivojlanishda davom etar ekan, uning huquqiy asoslari ham zamonaviy transchegaraviy o'zaro munosabatlarning murakkabligiga javob berishini ta'minlashi kerak.

Professor A. R. (Rafał) Vlodarchik (Varshava universiteti): Włodarczyk ta'kidlashicha, kuchli tomonlariga qaramay, Bryussel I bis Reglementi, ayniqsa, amalda qo'llanilishida qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Uning ta'kidlashicha, "Asos mustahkam bo'lsada, a'zo davlatlar milliy manfaatlar yoki huquqiy an'analarga asoslangan hukmlarning ijro etilishiga qarshilik ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud". U ushbu muammolarni yumshatish uchun milliy sudlar o'rtasida malaka oshirish va hamkorlikni kuchaytirish tarafdori.

Xulosa qilib aytganda, Bryussel I va Brussels I bis Reglementlari Yevropa Ittifoqi doirasida xalqaro xususiy huquq sohasini sezilarli darajada ilgari surgan bo'lsada, mavjud muammolarni hal qilish uchun doimiy ilmiy muloqot va amaliy baholash muhim ahamiyatga ega.

## ACADEMIC REFERENCES

1. Xalqaro xususiy huquqda yurisdiksiya: [Matn] O'quv qo'llanma / J.T Allayarov. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. - 96b
2. Klabbers, J. (2016). The Law of International Organizations. Cambridge University Press.
3. Xalqaro xususiy huquq: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik//Rahmonqulov va boshq. /H.B.Boboyev, M.X. Rustamboyev, O. Oqyulov, A.R Rahmanovlarning umumiy tahriri ostida – T.: TDYI nashriyoti, 2002. - 488b
4. Fentiman, R. (2010). "Jurisdiction and the Recognition of Judgments in the European Union." The Cambridge Law Journal, 69(1), 1-24.
5. Martyniszyn, M. (2016). "Brussels I Regulation: Jurisdictional Rules and Their Impact on International Trade." Journal of Private International Law, 12(2), 215-240.
6. Włodarczyk, A. R. (2014). "The Enforcement of Judgments in the European Union: A Comparative Perspective." European Journal of Law Reform, 16(4), 457-481.
7. European Commission. (2012). "Regulation (EU) No. 1215/2012 of the European Parliament and of the Council of 12 December 2012 on Jurisdiction and the Recognition and

Enforcement of Judgments in Civil and Commercial Matters (Recast)." Official Journal of the European Union, L 351, 1-32.

8. European Parliament. (2011). "Report on the Proposal for a Regulation of the European Parliament and of the Council on Jurisdiction and the Recognition and Enforcement of Judgments in Civil and Commercial Matters." Document A7-0191/2011.

#### **Additional References**

9. Morris, R. (2017). The Brussels I Regulation Recast: A Commentary on Regulation (EU) No. 1215/2012. Sweet & Maxwell.
10. Criscuolo, C. (2015). "The Brussels I Regulation and its Influence on International Litigation." Journal of Private International Law, 11(1), 19-47.